



UDK:82-94:82.01/09

Ulug'bek HAMDAMOV,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: hamdamov_u95@mail.ru

Termiz davlat universiteti dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD O.B.Shofiyev taqrizi asosida

AVTOBIOGRAFIK JANR GENEZISI VA TADRIJI

Аннотация

Mazkur maqolada avtobiografik janrning shakllanishi va taraqqiy etish bosqichlari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada avtobiografik ifoda an'analari, muallif shaxsining badiiy matnda namoyon bo'lish tamoyillari, janrning tadrijiy rivojlanishi hamda janrning poetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, avtobiografik janrning evolyutsion rivoji, undagi psixologizm, introspeksiya, memuaristik elementlar hamda ularning estetik funksiyasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Avtobiografiya, biografiya, tarjimai hol, tavba-iqrorlar, memuar, xotira-esdalik, maktub, introspeksiya, individuallik, avtoportret, muallif "men"i, identifikatsiya, antik davr, o'rta asrlar, renessans davri.

ГЕНЕЗИС И ЭВОЛЮЦИЯ АВТОБИОГРАФИЧЕСКОГО ЖАНРА

Аннотация

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются этапы формирования и развития автобиографического жанра. Рассматриваются традиции автобиографического выражения, принципы проявления личности автора в художественном тексте, поэтапное развитие жанра, а также его поэтические особенности. Кроме того, освещается эволюционное развитие автобиографического жанра, особенности психологизма, интроспекции, мемуаристических элементов и их эстетическая функция.

Ключевые слова: Автобиография, биография, жизнеописание, исповеди, мемуары, воспоминания, письмо, интроспекция, индивидуальность, автопортрет, авторское «я», идентификация, античность, средневековье, эпоха Возрождения.

THE GENESIS AND EVOLUTION OF THE AUTOBIOGRAPHICAL GENRE

Annotation

This article analyzes the stages of formation and development of the autobiographical genre from a scientific and theoretical perspective. The study examines the traditions of autobiographical expression, the principles of the author's self-representation in literary texts, the gradual development of the genre, as well as its poetic features. In addition, the article highlights the evolutionary development of the autobiographical genre, the role of psychologism, introspection, memoiristic elements, and their aesthetic function.

Key words: Autobiography, biography, biographical narrative, confessions, memoirs, recollection, epistolary text, introspection, individuality, self-portrait, authorial "I", identification, antiquity, Middle Ages, Renaissance period.

Kirish. Insonning o'z hayoti, kechinmalari va ichki olamiga murojaat etish istagi qadimdan badiiy ijodning asosiy manbalaridan biri bo'lib kelgan. Adabiyot tarixida shaxsning o'z hayotini badiiy shaklda aks ettirishga bo'lgan intilishi turli davrlarda turlicha mazmun va shakllarda namoyon bo'lgan. Shu jihatdan avtobiografik janr adabiyotdagi eng qadimiy va ayni paytda eng murakkab janrlardan biri sanaladi. U nafaqat muallif shaxsini, balki davr ruhini, ijtimoiy-ma'naviy muhitni ham ifodalovchi estetik hodisadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Avtobiografik va avtobiografik xarakterdagi asarlar misolida ushbu janrning tabiatini tahlilga tortgan qator olimlar janrning mohiyatini turli yondashuvlar asosida ochib berishga harakat qilishadi. Rus adabiyotshunosi Mixail Baxtin avtobiografik asarlar taraqqiyotini antik davrdagi biografik asarlar bilan hamohang tarzda kuzatadi. Baxtin antik zamonda yaratilgan biografik va avtobiografik matnlar ko'hna qit'aning romanchiligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatganligini e'tirof etadi [4]. Adabiyotshunos Mariya Rarenko ham avtobiografiyani biografiya tarkibida o'rganib, mazkur janrni biografiya negizida paydo bo'lganligini va uning "kenja" turi ekanligini uqdiradi [12]. Ko'rinish turibdiki, avtobiografik janrning vujudga kelishi va

tadriji biografiya bilan bevosita bog'liq. Narimon Hotamov va Bahodir Sarimsoqovlar hammuallifligida nashr etilgan lug'atda esa avtobiografiya adabiy janr sifatida ko'pincha memuarlarga yaqin turadi, qabilida izohlanadi [1]. Bu termin XVIII-XIX asrlar oralig'ida Yevropa xalqlari tillarida paydo bo'lgan, insonning o'zi va hayotidagi hodisalar haqidagi hikoyasi, tarixdan guvohlik berishning ko'rinishi, asosiy xususiyati subyektiv shaxsiy xarakterda ekanligidir. Tarixiy manba sifatida avtobiografiya haqidagi tasavvurlar XIX asr o'rtalarida paydo bo'ldi. Bu davrda avtobiografiyaning tarixiy haqiqatni qay darajada aks ettirishi munozaralarga sabab bo'ldi. Avtobiografiya tarafdorlari uning noyobligini ta'kidlar ekanlar, davr ruhini berish imkoniga ega ekanligi, uning yordamida inson shaxsiga chuqurroq kirib borish mumkinligini ta'kidladilar. Ayrim olimlar esa XIX asrda avtobiografiyaning subyektivligi va noaniqligi, inson xotirasining mukammal emasligidan kelib chiqib, uni inkor qilishga urindilar [15]. Avtobiografik janrning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bo'yicha rus olimlari tomonidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada avtobiografiya janrining shakllanishi, qadimgi davrlardan to hozirgacha

qanday bosqichlarni bosib o'tganini o'rganish, janrning tarixiy genezisini, turli davrlardagi o'zgarish sabablarini, ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirini aniqlash uchun tarixiy-tipologik metod qo'llanildi. Shuningdek, tadqiqotda komparativ va struktural tahlil hamda germeneytik yondashuvdan unumli foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Avtobiografiya janr sifatida antik davrda shakllana boshlagan va bu insonning shaxsiyatiga qiziqishning ortishi bilan bog'liq. Antik davrning ba'zi taniqli arboblari qiziqarli va avlodlar uchun yetarlicha muhim deb hisoblagan o'z hayotlarining tavsiflarini qoldirganlar. Qadimgi yunon yozuvchisi, jangchisi va siyosatchisi Ksenofont (miloddan avvalgi 5-asr oxiri – 4-asr boshlari) fors shohi Kir xizmatida bo'lgan va o'z xo'jayini hamda uning dushmani Artakserksning o'ldirilishidan keyin o'z vatanlariga qaytgan o'n ming yunon yollanma askarlarining chekinishini tasvirlab beruvchi "Anabasis" (Yurish) kitobini yozgan. Xarakterli jihati shundaki, Ksenofont bu og'ir chekinishga o'zi rahbarlik qilgan bo'lsa-da, u voqealarni uchinchi shaxs tilidan hikoya qiladi, bunda u o'z ichki kechinmalari bayonini emas, sodir bo'lgan voqealar tasviriga e'tibor qaratadi. Rus adabiyotshunosi Aleksey Losev Ksenofont asarlarini biografik asar sifatida e'tirof etadi. Sababi Ksenofontning "Memorabiliya" asarida Suqrot, "Kiropeidiya", "Anabasis" asarlarida fors podshohlari, "Agiselay" asarida Sparta shohi Agiselay haqida gap ketadi. Bu asarlarda nomlari zikr qilingan tarixiy shaxslar ideal qahramon, dovyurak, dono, saxiy odam sifatida gavalantirilgan. Losev ta'kidicha, Ksenofont buyuk shaxslar hayoti va faoliyati to'g'risida dastlabki "romanlashtirilgan biografialarni" [8; 166] yaratgan. Ammo yuqorida e'tirof etganimizdek, adibning "Anabasis" asari avtobiografik xarakterda, garchi muallif uchinchi shaxs tilidan hikoya qilsa-da, voqealar rivojining bevosita ishtirokchisi Ksenofontning o'zidir. Mashhur Rim davlat arbobi Yuliy Sezar (miloddan avvalgi 1-asr) ham o'zining "Galliya urushi haqida qaydlar"ida o'zining harbiy jasoratlarini batafsil tasvirlab bergan va Sezar ham o'zi haqida birinchi shaxs tilidan gapirmagan. Shunday qilib, bu antik asarlar avtobiografiyaning janr sifatida rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan, shu bilan birga bu asarlarni memuar yozuvlar sifatida ham tasniflash mumkin. Memuarlar avtobiografiyaga yaqin janrdir, ammo memuar janr ijodkorlari muallif atrofidagi tashqi voqea va odamlarga ko'proq e'tibor berishadi.

Antik davrda qadimgi yunon adabiyotining o'tmishdoshi sanaluvchi Qadimgi Rimda ham avtobiografiyaning ilk namunalari yaratilgan. U eramizning 2-asrida yashagan imperator Mark Avreliya tegishli bo'lib, "O'zimga" [6] (Meditatsiya, Refleksiya) deb nomlanadi, unda bu faylasuf-qiro, birinchi navbatda, o'zining ruhiy dunyosini tasvirlashga e'tibor qaratgan.

Eramizning boshida nasroniylikning paydo bo'lishi va tarqalishi dunyo madaniyatiga hech bo'lmaganda Xudo oldida inson shaxsiyatining qadr-qimmatini tushunchasini olib keldi. Xristian dini har bir e'tiqodi bor insonning iqror va tavbalarini hisobga oladi, degan ishonchning paydo bo'lishi odamlarning o'z savob va gunohlariga e'tiborini oshiradi. Miloddan avvalgi 400-yillarda yozilgan so'nggi antik davrning eng mashhur avtobiografiyalardan biri "Iqror" [17] deb nomlanishi bejiz emas. Uning muallifi xristian cherkovining atoqli arbobi, faylasuf, yozuvchi, mutafakkir, Shimoliy Afrikadagi Gippona shahri yepiskopi Avreliy Avgustin (354-430) hisoblanadi. Avliyo Avgustinning butun nasroniy tafakkurining rivojlanishidagi roli juda katta – u katolik cherkovining ta'limotini asrlar davomida belgilab bergan va ma'lum darajada hozir ham amalda bo'lgan ko'plab tamoyillarni ishlab chiqdi. U, asosan, Yangi Ahd g'oyalarini qadimgi yunon faylasufi Platonning ta'limoti bilan uzviy bog'lab tushuntirishga harakat qilgan. Avgustin ko'plab teologik va falsafiy asarlar yozgan.

Biroq, uning eng mashhur kitobi "Iqror" (Tazarru, Tavba – H.U.) bo'lib, unda bir butparast va nasroniyning o'g'li bo'lgan bu yozuvchi o'zining bolaligi va yoshligi to'g'risida, onasining e'tiqodini qabul qilgan paytgacha bo'lgan davrni batafsil hikoya qilgan. Avgustin o'zining butun hayotini inson qalbi haqiqiy e'tiqodni izlash yo'lining tasviri sifatida ko'rsatadi. Biroq, bu uning bolaligi, oilasi, maktabi, yomon ishlari va sevimli mashg'ulotlari haqidagi yorqin va rang-barang voqealarni ham aytib berishiga to'sqinlik qilmadi. Shunday qilib, ruhoniy Avgustinning "Iqror"i avtobiografiya deb atash mumkin bo'lgan birinchi asarlardan biri bo'ldi.

G'arbiy Yevropa madaniyati antik davrdan uzoqlashgan sari, atrofidagi olamni, o'z hayotini tasvirlashga qiziqish zaiflasha bordi. Ilk masihiylar tomonidan oshkora qilingan tavba va iqrorlar vaqt o'tishi bilan sir tutila boshlandi, oxir-oqibat "o'quvchilar uchun" yozma holdagi bu tavba va iqrorlar odatiy qabul qilinmadi. Shu jihatdan, O'rta asr san'at asarlari aksariyatining anonimligi – freska, ikona, sobor yoki kitob holda ekanligi – juda xarakterlidir. Bu davrning madaniyat arboblari o'z "men"ini ta'kidlashni emas, Xudoga murojaat qilishni o'zlarining asosiy vazifalari deb bilishgan. O'rta asrlarda ham ko'plab iqror va tavbalaridan iborat matnlar mavjud, lekin ularning aksariyati, birinchi navbatda, mualliflarning ma'naviy izlanishlariga e'tibor qaratilganligi boisidan ularni avtobiografiyalardan ko'ra diniy matnlar sifatida tasviflash o'rinli.

O'rta asrlarning oxirlarida vaziyat asta-sekin o'zgarib boshladi. O'rta asrlar shahar madaniyatining eng muhim xususiyatlaridan biri ratsionalizm – dunyoni tushunish uchun birinchi navbatda aqlni asos qilib qo'yadigan dunyoqarashdir. Shu tahlit aql-idrokli, fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsning mavqeyi ortib bordi. O'sha paytda yana bir yorqin avtobiografiya – fransuz faylasufi va ilohiyotchisi Pyer Abelyarning (1079-1142) "Mening baxtsizliklarim tarixi" (1132-1136) kitobi paydo bo'ldi [2]. "Mening baxtsizliklarim tarixi" asarida Abelyar o'zining 17 yoshli talabasi, Fulbertning jiyani Eloizaga bo'lgan muhabbati haqida hikoya qiladi. Muallif bir qator taniqli cherkov iyerarxlarini tomonidan azoblangani, ta'qiblariga uchrangani haqida gapirib, bu odamlarning dushmanligining sababi sifatida hasadni ko'rsatadi. U falsafa va o'qituvchilik sohasidagi muvaffaqiyatlari haqida yozadi va o'zining iste'dodli ekanligiga ko'p urg'u beradi. "Mening baxtsizliklarim tarixi" 1132–1136-yillar oralig'ida yozilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Abelyar bu asarni fojiali hayoti hikoyasi yordamida yangi ittifoqchilar yoki hech bo'lmaganda unga xayrixohlarni topish umidida tug'ilib o'sgan joyi Bretandan Parijga ko'chib o'tishga tayyorgarlik ko'rayotgan vaqtida yaratgan. U asar o'lyozmasini do'stlariga yubordi, asar tezda butun Fransiya davlati ziyolilar doirasida mashhurlikka erishadi. Biroq Abelyar o'z maqsadiga erisha olmadi: avtobiografiya uning dushmanlarining e'tiborini tortdi va cherkov tomonidan uning qoralanishi va ta'qiqlanishiga olib keldi.

XII asr oxiriga kelib Abelyarning tarjimai holi fransuz tiliga tarjima qilindi. 1616-yilda birinchi bosma nashri chiqdi. "Mening baxtsizliklarim tarixi" o'zining konfessional tabiati va psixologik teranligi bilan o'rta asr adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega. Bu Franchesko Petrarka, Papa Aleksandr, Jan-Jak Russo va boshqa yozuvchilarning asarlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. E'tiborlisi, Abelyar avliyo Avgustin olti asr o'tgach, shaxsiy hayotini tasvirlovchi avtobiografik janrga murojaat qildi. Ilk o'rta asrlardagi mualliflar uchun biz fikr yuritayotganimiz – o'z hayoti haqidagi hikoya (tarjimai hol – H.U.) faqat ruhning Xudoga eltuvchi ma'naviy-axloqiy yo'lini tasvirlashi kerak bo'lsa, XI – XII asrlar boshidagi insonlar uchun o'zlarining hayot yo'li-yu ko'rgan-kechirganlarini tasvirlash birlamchi bo'lgan.

O'rta asrlar o'rmini egallagan Uyg'onish davri inson shaxsiga bo'lgan g'oyat kuchli qiziqish bilan ajralib turadi. Uyg'onish davri falsafiy harakati bo'lgan gumanizm inson shaxsiyatini olamning markaziga qo'ydi, uning gunohkorligi-yu mavqesizligini rad etib, insonning aql-zakovati, go'zalligi, kuchi, ilmi va mahoratini ulug'ladi. Renessans davrida rang tasvirda portret (va avtoportret), adabiyotda lirika kabi janr rivojlangani bejiz emas. Uyg'onish davri daholaridan biri, italyan shoiri Franchesko Petrarka (1304-1374) ham avtobiografiya janrining rivojlanishiga hissa qo'shgani ramziy ma'noga ega. Uyg'onish davri kishisi sifatida Petrarka uchun o'z avtobiografiyasini yaratishi tabiiy edi. Uning avtobiografiyalaridan biri avlodlarga maktub shaklida yozilgan va unda muallif hayotida sodir bo'lgan voqealar haqida hikoya qilinadi. Yana biri esa Petrarka va avliyo Avgustin o'rtasidagi dialog tarzida yaratilgan bo'lib, unda Petrarkaning ma'naviy hayoti haqida so'zlanadi, uning axloqiy rivojlanishi va o'zi bilan ichki kurashi tasvirlanadi.

Uyg'onish va undan keyingi asrlarda ko'plab avtobiografik asarlar yaratildi, chunki o'sha paytda individual shaxs va uning ichki dunyosi mutlaq qadriyatga aylandi.

Uyg'onish davrining gullagan davrida avtobiografiya janrida yaratilgan eng yorqin asarlardan biri mashhur italyan zargari va haykaltaroshi Benvenuto Kellining (1500-1571) kitobidir. Muallif ushbu asarini "Benvenuto Kellining hayoti" deb nomlagan, asarni u keksalik chog'ida yaratgan. Bu asarda o'zining butun bir alg'ov-dalg'ovli, notinch hayotini tasvirlagan. O'zining tug'ilishi-yu bolaligi haqidagi hikoyalardan tortib, boshidan kechirgan ko'plab sarguzashtlari – Rim papasi, fransuz qiroli, Florensiya gersogi kabilarning xizmatida o'tkazgan yillari, o'zining harbiy jasoratlari, sevgi munosabatlari, janjallari, jinoyatlari, va boshqa ishlari haqida hayratlanarli darajada yorqin va jonli tarzda tasvirladi. U bu tarjimai holini umrining so'nggi yillarida yaratdi. Kellining tarjimai holini har tomonlama mukammal deb bo'lmaydi, chunki muallif maqtanish va voqelikni bo'rttirib tasvirlashga moyil bo'lgan. Ammo muallifning bu nuqsonlari asarning mashhur bo'lishiga ta'sir o'tkazmadi. Benvenuto Kellini hayot yo'lini lotin tilida emas, italyan tilida yozgan, bu esa muallifning keng ommaga murojaat qilganidan dalolat beradi. Kitob birinchi marta 1728-yilda nashr etilgan va darhol keng tarqalgan. Kellini avtobiografiyasi ko'pgina Yevropa tillariga tarjima qilingan (Gyotening o'zi uni nemis tiliga tarjima qilgan) va uning birinchi ruscha tarjimasi 1848-yilda paydo bo'lgan. Kellining individualizmi va asarning avantur xarakteri avtobiografik janrning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Avtobiografik yozuvning yana bir falsafiy turi ham ilk Uyg'onish davrida yaratilgan bo'lib, bu fransuz faylasufi Mishel Montening (1533-1592) "Esselar" kitobidir. Montening tadbirkor edi, nafaqaga chiqqach, o'zining oilaviy qasrida yolg'iz qoldi, u erda ilmiy izlanishlar olib bordi. Bu yerda u ko'p yillar davomida o'zining "Esselar" asari ustida ishladi, ular ilk bor 1580-yilda nashr etildi va qisqa vaqt ichida hozirgi zamonning eng ko'p o'qilgan falsafiy asarlaridan biriga aylandi. Montening "Esselar" ("Tadqiqotlar", 1580 – 1588-y.) asari 3 kitobdan iborat. "Esse" – lotincha so'z bo'lib, "o'z ustida tajriba o'tkazish" degan ma'noni anglatadi. Montening bu asari turli mavzulardagi falsafiy tadqiqotlar majmuidan

iborat. Bu asarda 3000 ta iqtibos keltirilgan: avliyo Pavel nasihatlaridan 14 ta, "Ko'hna Ahd"dan 12 ta, Injildan 4 ta. Shuningdek, allomalar Ekkleziast, Vergiliy, Goratsiy, Aflotun, Epikur, Lukretsiy, Plutarx va Seneka kabi allomalardan olingan bir necha yuzlab iqtiboslar ham ushbu asarda aks etgan. Montening asarlarida qaysi mavzuga murojaat qilmasin, avval o'z shaxsiy yondashuvini, keyin esa misollarni bayon etadi. Ba'zan esa aksincha yo'l tutadi [16]. Montening insholarining avtobiografiya janrining rivojlanishidagi ahamiyati juda katta. Kitobda uning o'zi va taqdiri haqidagi mulohazalari dunyo va undagi insonning o'rni haqidagi fikrlari bilan chambarchas bog'langani haqidagi fikrlari bilan cheklanib qolmaydi. Montening avtobiografiyaning o'zidan oldingi ijodkorlaridan farqli o'laroq, o'zining oddiyligini ongli ravishda ta'kidlab o'tadi, o'zini ko'p ham e'tirof etavermaydi. "Men oddiy va har qanday yorqinlikdan mahrum bo'lgan hayotni ko'rsatdim", – deb yozgan edi u. Shunday qilib, jahon madaniyatida birinchi marta "har bir inson butun insoniyatga xos bo'lgan hamma narsaga ega", – degan g'oya shakllantirildi, shuning uchun ham uning tarjimai holi potensial o'quvchilarni qiziqitirib kelmoqda. Montening "Esselar" haqida shunday deb yozadi: "Kitobimning mundarijasi – men o'zimman". Volter uning bu fikrini sharhlab, shunday degandi: "Montening soddadillarcha o'zini-o'zi ta'riflashi o'ziga xos go'zallik kasb etadi. U shu yo'l bilan oxir-oqibat insonning umumiy timsolini yaratdi" [16].

Keyingi asrlarda yaratilgan barcha avtobiografiyalarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin: Kelliniga ergashadiganlar, ya'ni muallifning o'z g'ayrioddiy tabiatini ta'kidlaganlar va mualliflari Montenga u yoki bu darajada taqlid qilganlar – ba'zan samimiy, ba'zan esa o'zlarining hayoti va avtobiografiyasi qanday bo'lishi kerakligi haqida o'quvchilar diqqatini jalb etish uchun hazilomuz gapiradiganlar.

Xulosa va takliflar. Avtobiografik janrning genezisi insonning o'zlikni anglash jarayoni, xotira madaniyati va shaxsiy individuallikning adabiyotda mustahkamlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Qadimgi tarjimai hol shakllaridan boshlab, diniy e'tiroflar (tavba, iqror), memuarlik an'analari, romantik va tanqidchi "men" timsolining kuchayishi hamda antik, o'rta asrlar, renessans davridagi ichki kechinma markazlashuvi avtobiografiyaning uzluksiz evolyutsiyasini ta'minladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, avtobiografik matnlar har bir tarixiy davrning ma'naviy-estetik ehtiyojlarini aks ettirgan holda, badiiy tafakkur taraqqiyotining muhim ko'rinishlaridan biriga aylangan. Shuningdek, janrning tadriji unda kompozitsion model, vaqt strukturalari, xotira va identifikatsiya kategoriyalarining badiiy talqinida ham yangi bosqichlarni yuzaga keltirganini ko'rsatadi. Avtobiografik matnlarda "men"ning ko'p qatlamli konstruksiyasi – fakt va xotiraning o'zaro uyg'unligi – janrning nazariy-estetik qiyofasini belgilab bergan asosiy tamoyillardan biridir. Avtobiografik janrni genologik jihatdan kengroq tasniflash, uning memuar, kundalik, esse shakllari bilan o'zaro chegaralarini aniqlash, ularning umumiy va farqli jihatlarini tizimlashtirish, avtobiografik matnlarni, undagi mualliflik pozitsiyasi va "men" konsepsiyasini tizimli tahlil qilish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
2. Абельер П. История моих бедствий / изд. подг. Д.А.Дрбоглав, Н.А.Сидорова, В.А.Соколов, В.С.Соколов. — Москва: Издательство Академии наук СССР, 1959.
3. Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. – Москва: Художественная литература, 1986.
4. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М. Литературно-критические статьи. – Москва: Художественная литература, 1986.

5. Винокур Г.О. Биография и культура. Русское сценическое произношение. – Москва: Русские словари, 1997.
6. К самому себе: Размышления / Марк Аврелий Антонин; Пер. с греч. Пл. Краснова — Санкт-Петербург: А.С.Суворин, 1895.
7. Лейдерман Н.Л. Теория жанра: исследования и разборы. – Екатеринбург: Словесник, 2010.
8. Лосев А.Ф. Античная литератураю – Москва: Просвещение, 1986.
9. Маркова Т.Н. Авторские жанровые номинации в современной русской прозе как показатель кризиса жанрового сознания // Вопросы литературы. – 2011. - №1. – С.280-290.
10. Мильчина В.А. Автобиография// В кн.: Литературный энциклопедический словарь / под ред. В.М.Коженикова, П.А.Николаева. – Москва: Сов. энциклопедия, 1987.
11. Пушкарева Н.Л. У истоков женской автобиографии в России // Филологические науки. – 2000. - № 3. – С.62-69.
12. Раренко М.Б. Жанр биографии как социальный феномен. DOI:1031249/rsoc/2019.03.02.
13. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – Москва: Аспект Пресс, 1999.
14. Чернец Л.В. Литературные жанры: проблемы типологии и поэтики. – Москва: Изд-во Моск. ун-та, 1982.
15. Internet manzili: <https://w.histrf.ru/articles/article/show/avtobioghrafiia>
16. Internet manzili: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/monten>
17. Internet manzili: <http://www.odinblago.ru/ispoved>